ZAMONAVIY OILADA BOLALAR TARBIYASI VA PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLAR: EMPIRIK TADQIQOT VA STATISTIK TAHLIL

Mallaboyeva Shahzodaxon Shuxratjon qizi

Qo‘qon universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi, Psixologiya yo‘nalishi talabasi

mallaboyevashahzoda142@gmail.com

+998901508858

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va transformatsiya jarayonlari ta‘sirida shakllanayotgan zamonaviy oilalarda kichik maktab yoshidagi bolalar tarbiyasining o‘ziga xos tizimli-dinamik jihatlari hamda tarbiya amaliyotida yuzaga kelayotgan dolzarb psixologik qiyinchiliklar ilmiy va empirik jihatdan keng qamrovli tahlil qilingan. Sotsium taraqqiyoti, ota-onalarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi hamda raqamli texnologiyalarning oilaviy kommunikatsiyaga vertikal va gorizontal ta’siri (texnoferensiya, fomping hodisalari) o‘rganilgan. Tadqiqot doirasida ota-onalarning mobil qurilmalarga mikrotizimli chalg‘ishi bilan ota-onalik munosabatlari va tarbiya tiplari o‘rtasidagi funktsional bog‘liqliklar Spearman korrelyatsiya koeffitsiyenti (r_s) hamda gender xususiyatlariga ko‘ra guruhlararo farqlar Mann-Whitney U-testi yordamida statistik tahlil qilingan. Matematik-statistik tahlil natijalari ota-onalarning raqamli chalg‘ishi va ularning bolaga bo‘lgan fundamental emotsional munosabati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlik va destruktiv determinatsiya mavjud emasligini, ota-onalik pozitsiyasi ancha barqaror makrotuzilma ekanligini ko‘rsatdi. Maqolada avlodlararo kommunikativ va kognitiv uzilishlarni bartaraf etish, bolalarda sog‘lom shaxsiyat poydevorini shakllantirish hamda maktab va oila hamkorligini optimallashtirish bo‘yicha tizimli amaliy-psixologik tavsiyalar majmuasi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: oila tizimi, kichik maktab yoshi, zamonaviy oila, psixologik qiyinchiliklar, texnoferensiya, fomping, kognitiv yuklama, tarbiya uslublari.

Abstract. This comprehensive scientific article examines the systemic-dynamic aspects of child-rearing in modern families undergoing structural transformations and globalization, focusing on the prominent psychological difficulties in early school-aged children. The study thoroughly investigates social progress, parental socio-economic engagement, and the pervasive role of digital technologies within familial communication networks, conceptualized through the lenses of technoference and phubbing. Empirically, the functional relationships between parental digital distraction and subjective parenting styles were scrutinized utilizing the Spearman rank correlation coefficient (r_s), while gender-based differentiations were analyzed via the non-parametric Mann-Whitney U-test among a sample of parents. The statistical output demonstrated that parental technoference does not maintain a direct linear determination or immediate destructive effect on the fundamental dimensions of parenting attitudes, showcasing the relative stability of parental cognitive-emotional schemas. Concurrently, a significant gender divergence was observed in parental reactions toward child failures. The article concludes with a systematic framework of practical psychological recommendations aimed at bridging intergenerational cognitive gaps, fostering emotional intelligence, and optimizing the structural synergy between family and contemporary educational institutions.

Key words: family system, early school age, modern family, psychological difficulties, technoference, phubbing, cognitive overload, parenting styles.

Kirish. Insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida oila jamiyatning o‘ta sezgir, fundamental va tayanch ijtimoiy instituti bo‘lib kelgan. Oila nafaqat biologik naslni davom ettirish, balki madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy normalarni va shaxslararo muloqot modellarini avloddan-avlodga uzatuvchi asosiy bosh omil hisoblanadi (Karimova, 2015; Shoumarov, 2008). Biroq, XXI asr boshlariga kelib, axborot oqimining shiddatli sur’atlarda o‘sishi, iqtisodiy munosabatlarning keskinlashishi va

raqamli ekotizimning globallashuvi an’anaviy oilaviy munosabatlar tizimini tubdan o‘zgartirib yubordi.

Hozirgi zamonaviy oilalar tizimli inqirozlar, strukturaviy siljishlar va tarkibiy o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu esa oilaviy mikromuhitda tarbiyalanayotgan yosh avlod ruhiyatida anyiqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar (9–10 yosh) tarbiyasi va ularning ijtimoiylashuvi masalasi bugungi kunda alohida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Ushbu davr inson ontogenezida yetakchi faoliyat turining o‘yin faoliyatidan tizimli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv faoliyatiga o‘tishi bilan xarakterlanadi (Davletshin, 2002).

L.S. Vigotskiy (1978), E. Erikson va boshqa ko‘plab klassik psixologlar ushbu davrni shaxs taraqqiyotidagi muhim burilish nuqtasi, ya’ni bolaning jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash, o‘z-o‘zini baholash tizimini shakllantirish va “men” kontseptsiyasining ijtimoiy qiyofasini chizish bosqichi sifatida baholaganlar. Kichik maktab yoshidagi bola birinchi marta ota-ona muhitidan tashqaridagi yangi ijtimoiy institut - maktab muhitiga va begona kattalar (o‘qituvchilar) tizimiga duch keladi. Bu davrda oila bola uchun nafaqat moddiy ta’minot manbai, balki uning ijtimoiy xavotirlarini kompensatsiya qiluvchi, psixologik xavfsizligini kafolatlovchi emotsional tayanch vazifasini bajarishi shart (Turdiyeva, 2023). Biroq zamonaviy sotsial-psixologik voqelik shuni ko‘rsatadiki, oilalar ushbu funktsiyani to‘liq bajarishda qator ichki va tashqi to‘sqinliklarga duch kelmoqdalar.

Urbanizatsiya sur’atlarining jadallashishi, ota-onalarning ijtimoiy va kasbiy bandlik darajasining o‘ta yuqoriligi ota-ona va bola o‘rtasidagi jonli, mazmunli va hissiy yaqinlikka asoslangan muloqot vaqtini keskin qisqartirib yubordi (Davletshin, 2016). Buning o‘rnini esa raqamli texnologiyalar, smartfonlar va virtual makon elementlari shiddat bilan egallamoqda. Oila a’zolarining bir uyda, jismonan bir makonda o‘tirib, ruhan bir-biridan uzoqlashishi, ya’ni kommunikativ aloqaning virtual vositalar hisobiga uzilishi zamonaviy psixologiyada “texnoferensiya” va “fomping”

fenomenlari doirasida o‘rganila boshlandi (Kvon et al., 2013). Ushbu muammolarni miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilish, ularning ota-onalik munosabati tizimiga va tarbiya modellariga ta’sirini empirik o‘rganish hozirgi oila psixologiyasining eng ustuvor va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot zamonaviy oilalarda kichik maktab yoshidagi bolalar tarbiyasining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarini ochib berish va ota-onalarning raqamli vositalarga chalg‘ish darajasi (texnoferensiya) ularning farzandga nisbatan real tarbiyaviy pozitsiyasini qanchalik determinatsiya qilishini baholashga qaratilgan. Tadqiqot tizimli yondashuv, shaxs rivojlanishining madaniy-tarixiy kontseptsiyasi va oila tizimi psixoterapiyasi nazariyalariga tayangan holda empirik formatda tashkil etildi.

Tadqiqotning empirik bazasini Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahridagi 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 3-4-sinflarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning ota-onalari tashkil etdi. Empirik tanlanmada jami 61 nafar ota-ona respondent sifatida ishtirok etdi. Respondentlarning gender va demografik xarakteristikalari o‘rganilganda, ulardan 23 nafari erkak (37,7% otalar) va 38 nafari ayol (62,3% onalar) ekanligi aniqlandi. Ota-onalarning farzandlari yosh ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilinganda, 9 yoshli bolasi bor ota-onalar 34,4% ni, 10 yoshli bolasi bor ota-onalar esa 65,6% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich kichik maktab yoshining eng faol va keskin o‘zgaruvchan hamda inqirozli yakunlovchi bosqichini qamrab olishga imkon berdi. Tadqiqotda metodologik vositalar sifatida quyidagi standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikalar majmuasidan foydalanildi;

Tadqiqotda B.Makdeniel va S.Koyn tomonidan ishlab chiqilgan va oilaviy muloqotga raqamli qurilmalarning aralashuv darajasini o‘lchovchi “Ota-ona texnoferensiyasi shkalasi” (Parent Technoference Scale) (Makdeniel & Koyn, 2016) metodikasi qo‘llanildi. Mazkur so‘rovnoma ota-onalarning bola bilan birgalikda vaqt o‘tkazish, ovqatlanish, o‘yin o‘ynash va suhbatlashish jarayonlarida smartfon yoki

kompyuter sababli muloqotning necha marotaba bo‘linishini subyektiv baholashga qaratilgan.

Ikkinchi metodikamiz esa A.Ya. Varga va V.V. Stolin tomonidan yaratilgan “Ota-onalik munosabati testi-so‘rovnomasi” (ORO) bo‘lib, ushbu ko‘p o‘lchovli metodika ota-onalarning bolaga nisbatan hissiy va kognitiv munosabatlari tizimini beshta asosiy diagnostik shkala bo‘yicha aniqlaydi. Ular “Bolani qabul qilish - rad etish”, “Kooperatsiya” (ijtimoiy hamkorlik), “Simbioz” (psixologik masofaning yaqinligi), “Nazorat” (avtoritar talabchanlik) hamda “Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat” (infantillashtirish) shkalalaridir. Tadqiqotda olingan birlamchi empirik ma’lumotlar matematik-statistik qayta ishlash bosqichidan o‘tkazildi. Eng avvalo, tanlanmadagi o‘zgaruvchilarning normal taqsimot qonuniyatiga muvofiqligi Kolmogorov-Smirnov va Shapiro-Wilk mezonlari orqali tekshirildi. Tekshirish natijasida “Kooperatsiya”, “Simbioz”, “Nazorat” va “Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat” ko‘rsatkichlarida taqsimot asimmetrik xarakterga ega ekanligi, ya’ni normal taqsimot chizig‘idan sezilarli farq qilishi oydinlashdi. Faqatgina “Bolani qabul qilish - rad etish” va “Ota-ona texnoferensiyasi” o‘zgaruvchilarida normal taqsimot parametrlari saqlanib qolgan. Shu sababli, tadqiqot ma’lumotlarining reprezentativligi va matematik ishonchliligini kafolatlash maqsadida parametrik bo‘lmagan statistika mezonlari tanlandi. Ikki mustaqil o‘zgaruvchi (ota-ona texnoferensiyasi va ota-onalik munosabati) o‘rtasidagi korrelyatsion aloqalarni aniqlashda Spearman darajali korrelyatsiya koeffitsiyenti (r_s) hisoblab chiqildi.

Respondentlarning gender xususiyatlariga (ota va onalar guruhlariga) ko‘ra ko‘rsatkichlarning o‘zaro farqlanishini baholashda esa Mann-Whitney U-testi kriteriyasidan foydalanildi. Barcha kompyuter hisob-kitoblari va statistik modellashtirish ishlari ijtimoiy fanlar uchun maxsus hisoblangan IBM SPSS Statistics (Version 26.0) dasturiy paketi yordamida amalga oshirildi.

Asosiy qism. Zamonaviy sotsial-psixologik shart-sharoitlar shuni tasdiqlaydiki, oila institutining sotsial-psixologik shakllanishi o‘ta murakkab ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlar bilan hamohang kechmoqda. Respublika oila psixologiyasi maktabining asoschilaridan biri V.M. Karimova (2010) o‘z tadqiqotlarida haqli ravishda ko‘rsatib o‘tganidek, mustaqillik yillaridan keyingi davrda o‘zbek oilasining qadriyatli-motivatsion tuzilmasida tub o‘zgarishlar yuz berdi.

Bugungi kunda an’anaviy ko‘p avlodli (kengaytirilgan) oilalar o‘rnini tobora ko‘proq er-xotin va farzandlardan iborat bo‘lgan nuklear oilalar egallamoqda (Laptenok, 2010; Yurkevich, 2005). Nuklear oila modeli o‘zining iqtisodiy mobilligi va avtonomligi bilan ajralib tursa-da, unda tarbiyaning “himoya qobig‘I” biroz zaiflashadi. Kengaytirilgan oilalarda bobo va buvilar, yaqin qarindoshlar bolaning ijtimoiylashuvida va ota-onaning tarbiyaviy xatolarini neytrallashtirishda buffer (yumshatuvchi) vazifasini bajargan bo‘lsa, nuklear oilada bola ota-onaning emotsional holatiga va tarbiyaviy qobiliyatiga bevosita va yakkama-yakka bog‘lanib qoladi (Karimova, 2005).

L.S. Vigotskiy (1978) tomonidan asoslangan shaxs rivojlanishining madaniy-tarixiy konsepsiyasiga binoan, bolaning har qanday oliy ruhiy funktsiyalari (diqqat, xotira, tafakkur, nutq) dastlab shaxslararo muloqot darajasida (interpsixik) yuzaga kelasi va keyinchalik bolaning ichki xususiyatiga (intrapsixik) aylanadi. Demak, kichik maktab yoshidagi bolaning ruhiy rivojlanish darajasi uning ota-onasi bilan olib boradigan kundalik muloqotining sifati bilan bevosita mutanosibdir. G‘.B. Shoumarov (2008) oilaviy nizolar va ota-onaning befarqligi bolada nevrotik reaksiyalar, maktab muhitiga moslasha olmaslik va depressiv holatlarni keltirib chiqarishini isbotlagan. Zamonaviy voqelikda esa ota-onaning farzandiga e’tibor bermasligi shunchaki sub’ektiv xohishga emas, balki ob’ektiv texnologik reallikka - raqamli chalg‘ishlarga borib taqalmoqda.

Bugungi kunda xalqaro psixologiyada keng o‘rganilayotgan “fomping” (phubbing) va “texnoferensiya” tushunchalari oilaviy mikromuhitni egovlovchi asosiy yashirin omillar sifatida yuzaga kelmoda (Kvon et al., 2013). Ota-onaning bola bilan bir xonada o‘tirib, uning maktabdagi muvaffaqiyatlari, do‘stlari bilan munosabatlari haqidagi gaplarini shunchaki eshitishi, ammo nigohini smartfon ekranidan uzmasligi bolada “mening emotsional kechinmalarim ota-onam uchun qadrsiz” degan kognitiv sxemaning shakllanishiga olib keladi (Makdeniel & Koyn, 2016). Bu holat bolaning emotsional intellektini (EQ), ya’ni o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarish hamda boshqalarning emotsional holatiga empatiya bildirish qobiliyatini tormozlaydi. Axborot oqimining bunday nazoratsiz kirib kelishi bolalarda “kognitiv yuklama”ni (cognitive overload) oshiradi (G‘oziyev, 2002). Kognitiv yuklama natijasida bolaning asab tizimi doimiy qo‘zg‘alish holatida bo‘ladi, bu esa maktab darslarida diqqat konsentratsiyasining pasayishi, charchoq va o‘zlashtirishning yomonlashuviga sabab bo‘ladi (Davletshin, 2016). Shuningdek, axborotni faqat qisqa, dinamik, yorqin vizual tasvirlar orqali qabul qilishga odatlanish - “klipcha fikrlash” (clip thinking) uslubini keltirib chiqaradi, bu esa bolaning mantiqiy, chuqur va tanqidiy mushohada yuritish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tadqiqotimiz doirasida olingan amaliy ma’lumotlar o‘rganilganda, zamonaviy ota-onalarda raqamli chalg‘ishlar muayyan darajada barqarorlashgani ko‘rindi. “Ota-ona texnoferensiyasi shkalasi” bo‘yicha olingan o‘rtacha ballar ota-onalarning deyarli yarmi kun davomida farzandi bilan muloqot qilish jarayonida ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar yoki ish yuzasidan qo‘ng‘iroqlar tufayli muloqotning kamida bir necha bor bo‘lishini tasdiqlaydi.

A.Ya. Varga va V.V. Stolinning “Ota-onalik munosabati testi” bo‘yicha olingan natijalarda esa, ota-onalarning umumiy hissiy yondashuvi aks ettirilgan “Bolani qabul qilish - rad etish” shkalasi o‘rtacha yuqori ko‘rsatkichni berdi. Bu ota-onalarning ko‘pchiligi o‘z farzandlarini sub'ektiv ravishda qabul qilishi, ularga nisbatan ijobiy

munosabatda ekanligini ifodalaydi. Shuningdek, “Kooperatsiya”, “Simbioz”, “Nazorat” va “Bolaning muvaffaqiyatsizligiga munosabat” ko‘rsatkichlari me’yoriy me’zonlar chegarasida ekanligi oydinlashdi.

Ushbu tadqiqotning eng muhim va mantiqiy ilmiy xulosalari Spearman korrelyatsion tahlili natijasida yuzaga chiqdi. Ota-onalar texnoferensiyasi ko‘rsatkichlari bilan ota-onalik munosabatlarining beshta strukturaviy komponenti o‘rtasidagi bog‘liqlik koeffitsiyentlari hisoblab chiqilganda, quyidagi raqamli manzara namoyon bo‘ldi: “Texnoferensiya” va “Bolani qabul qilish - rad etish”: r_s = -0,022; p = 0,868. “Texnoferensiya” va “Kooperatsiya (hamkorlik)”: r_s = 0,098; p = 0,454. “Texnoferensiya” va “Simbioz (yaqinlik)”: r_s = -0,048; p = 0,712. “Texnoferensiya” va “Nazorat (giperproteksiya)”: r_s = -0,083; p = 0,527 “Texnoferensiya” va “Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat”: r_s = 0,100; p = 0,443. Statistik qonuniyatlarga ko‘ra, barcha hisoblangan holatlarda korrelyatsiya koeffitsiyentining ahamiyatlilik darajasi statistik me’zondan ancha yuqori (p > 0,05) bo‘lib chiqdi. Bu shuni anglatadiki, ota-onalarning mobil qurilmalarga chalg‘ish darajasi (texnoferensiya) ularning farzandlariga bo‘lgan fundamental psixologik va emotsional munosabat ko‘rsatkichlari bilan statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlikka ega emas. Ya’ni, biz ilgari surgan “Ota-onaning telefonga ko‘p chalg‘ishi bolaga bo‘lgan munosabatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sovuqlashtiradi va rad etish darajasini oshiradi” degan nazariy gipoteza o‘zining miqdoriy tasdig‘ini topmadi.

Ushbu statistik natijaning psixologik interpretatsiyasi juda muhim ilmiy mantiqqa ega. Ota-onalik munosabati tizimi (parental attitudes) shaxsning uzoq yillar davomida shakllangan, uning o‘z ota-onasidan olgan tarbiyaviy stereotiplari, ichki qadriyat tizimi, madaniy-etnik qarashlari va shaxsiy kognitiv-emotsional tajribasiga tayanadigan o‘ta mustahkam makrotuzilmadir (Shoumarov, 2000). Gadjetlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki raqamli chalg‘ishlar insonning kundalik xulq-atvor darajasida (muloqot vaqtining miqdorida) muammolar keltirib chiqarsa-da, u chuqur psixologik darajadagi

ota-onalik pozitsiyasini chiziqli ravishda o‘zgartira olmaydi. Ya’ni, ota yoki onaning ish tufayli yoki ijtimoiy tarmoqda uzoq vaqt qolib ketishi uning bolani yaxshi ko‘rish yoki ko‘rmasligini (qabul qilish yoki rad etishni), uning ustidan o‘rnatgan nazorat modellarini belgilab beruvchi bosh omil hisoblanmaydi. Ota-onalar smartfonga chalg‘igan holatda ham farzandini shaxs sifatida qadrlashda va unga g‘amxo‘rlik qilishda davom etadilar.

Tadqiqot doirasida gender omilining tarbiyaviy tizimga ta’sirini o‘rganish maqsadida ota va onalar guruhlarining ko‘rsatkichlari Mann-Whitney U testi mezonlari orqali qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, erkak va ayol respondentlarning raqamli vositalarga chalg‘ish darajasida, ya’ni “Ota-ona texnoferensiyasi shkalasi” bo‘yicha guruhlararo ishonchli statistik farq aniqlanmadi ($U = 428{,}000$; $Z = -0{,}134$; $p = 0{,}893$; $p > 0{,}05$). Bu ko‘rsatkich zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning gender xususiyatlaridan qat’i nazar (ham otalar, ham onalar) bir xil darajada raqamli ekotizim va mobil qurilmalar ta’siriga duchor bo‘layotganini ko‘rsatdi. Smartfon bugungi kunda faqat ayollar yoki faqat erkaklar muloqotini bo‘luvchi vosita emas, balki umumiy oilaviy muhitning ajralmas qismiga aylangan.

Shuningdek, “Bolani qabul qilish” ($p = 0{,}398$), “Kooperatsiya” ($p = 0{,}166$), “Simbioz” ($p = 0{,}094$$) va “Nazorat” ($$p = 0{,}165$) shkalalarida ham ota va onalar guruhlari o‘rtasida statistik ahamiyatga ega farqlar topilmadi. Biroq, ota-onalik munosabatlarining beshinchi komponenti bo‘lgan “Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat” shkalasi bo‘yicha ota va onalar guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli farq qayd etildi ($U = 267{,}000$; $Z = -2{,}592$; $p = 0{,}010$; $p < 0{,}05$). Ushbu ko‘rsatkich milliy oilaviy tarbiya kontekstida ota va onalarning kichik maktab yoshidagi bolaning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklariga, xatolariga yoki kundalik hayotdagi muammolariga turlicha yondashishini ilmiy isbotlaydi.

Onalar tabiatan emotsional yaqinlikka, simbiotik (emotsional) munosabatlarga moyil bo‘lganliklari sababli bolaning maktabdagi har bir muvaffaqiyatsizligini

(masalan, past baho olishini, o‘qituvchisidan tanbeh eshitishini) o‘zlarining shaxsiy fojiasi va muvaffaqiyatsizligi sifatida hissiy kechinma bilan qabul qiladilar (Karimova, 2005). Ular bolani himoya qilishga, uning muammolarini o‘zlari hal qilib berishga va shu orqali uni infantillashtirishga (kichraytirishga) moyillik ko‘rsatadilar. Otalar esa tarbiya jarayonida ratsional, qat’iy va ma’lum ma’noda masofali (distantsion) pozitsiyani egallaydilar. Ular bolaning muvaffaqiyatsizligiga kelajakda kuchli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy tajriba sifatida qaraydilar va boladan ko‘proq mustaqillik, mas’uliyat va intizomni talab qiladilar. Bu jinslararo farq raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lmay, balki oiladagi an’anaviy ijtimoiy-psixologik rollarning taqsimlanishi bilan izohlanadi.

A.Adler (1930) o‘zining individual psixologiya nazariyasida ta’kidlaganidek, bolaning oiladagi o‘rni va kattalar tomonidan uning muvaffaqiyatsizliklariga beriladigan reaksiyalar uning hayotiy uslubini belgilaydi. Agar oilada ota-onaning haddan tashqari chalg‘ishi yoki noto‘g‘ri munosabati sababli bola o‘zini yolg‘iz his qilsa, unda o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik va past baholash kompleksi rivojlanadi. Bunday bolalar maktab jamoasida tengdoshlari bilan muloqotga kirishishda qiynaladilar yoki kompensatsiya mexanizmi sifatida agressiv, deviant xulq-atvorni namoyon qila boshlaydilar.

Shu sababli, zamonaviy oilalarda ota-onalar tarbiyaning qat’iy jazo va taqiqlarga asoslangan avtoritar uslubidan ham, bolani mutlaqo nazoratsiz qoldiradigan liberal uslubdan ham voz kechib, o‘zaro ishonch, teng huquqlilik va mas’uliyatni ko‘zda tutuvchi demokratik tarbiya uslubini ustun qo‘yishlari lozim (G‘oziyev, 2002).

Xulosa. Olib borilgan tizimli-nazariy va empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oilalarda kichik maktab yoshidagi bolalar tarbiyasi va ularning shaxs sifatida shakllanishi shiddatli sotsial-madaniy va texnologik transformatsiyalar sharoitida kechmoqda. Tadqiqot natijalari oilaviy hayotga raqamli vositalarning kirib kelishi (texnoferensiya) ota-onalarning farzandga bo‘lgan fundamental emotsional

munosabatini, ya’ni bolani shaxs sifatida qabul qilish va qadrlash darajasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri buzmasligini ko‘rsatdi.

Ota-onalik pozitsiyasi va tarbiya stereotiplari uzoq yillar davomida shakllanadigan barqaror makrotuzilma bo‘lib, kundalik hayotdagi gadjetlarga chalg‘ishlar uning asosini chiziqli ravishda o‘zgartira olmaydi. Shunga qaramay, ota-onalarning mobil qurilmalarga mikrotizimli chalg‘ishi oilaviy muloqotning vaqti va sifatini pasaytirib, bolalarda yashirin emotsional bo‘shliq, diqqat tarqoqligi hamda axborotni yuzaki qabul qilish (klipcha fikrlash) kabi psixologik qiyinchiliklarning shakllanishiga bilvosta zamin yaratadi.

Gender xususiyatlari tahlili esa oiladagi an’anaviy rollar taqsimotining barqarorligini ko‘rsatdi, ya’ni onalar bolaning maktabdagi va kundalik hayotdagi muvaffaqiyatsizliklarini ortiqcha emotsional xavotir bilan qabul qilib, uni haddan tashqari himoya qilishga moyillik namoyon etsa, otalar ko‘proq mantiqiy-vazmin yondashuvni egallab, mustaqillik va mas’uliyatni talab qiladilar. Bu esa zamonaviy oilada sog‘lom shaxsiyat poydevorini qo‘yish uchun ota va onaning tarbiyaviy yondashuvlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish hamda maktab va oila hamkorligi tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish zarurligini belgilab beradi.

Tavsiyalar. Tadqiqot xulosalariga tayangan holda, zamonaviy oilalarda sog‘lom psixologik iqlimni ta’minlash va tarbiyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

- “Oltin daqiqalar” qoidasini joriy etish. Bunda ota-onalar har kuni kamida 20-30 daqiqa davomida barcha gadjetlarni o‘chirib, farzandi bilan bevosita ko‘z muloqoti orqali muloqot qurishlari lozim (McDaniel & Coyne, 2016). Suhbat faqat baholarni tekshirishga emas, bolaning ichki kechinmalari, orzu va qo‘rquvlariga qaratilishi boladagi psixologik xavfsizlik hissini kuchaytiradi.
- Oilaviy “Raqamli shartnoma” (Digital Contract) madaniyatini shakllantirish: Raqamli chalg‘ishlarni agressiv taqiqlash o‘rniga, oilaning barcha a’zolari uchun

umumiy bo‘lgan kelishuvlarni joriy etish zarur (Kwon et al., 2013). Masalan, «ovqatlanish stolida telefondan foydalanmaslik» yoki «soat 21:00 dan keyin gadjetlarni cheklash» qoidalari bolada vaqtni boshqarish va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi.

- Tarbiyada demokratik uslub va gender muvozanatini ta’minlash: Ota va onalar bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat bildirishda yagona strategiyaga kelishishlari shart. Onalarning haddan tashqari xavotiri va otalarning o‘ta qattiqqo‘lligi o‘rtasida balans topilib, xatoga jazo emas, balki kelajakdagi hayotiy tajriba va o‘sish nuqtasi sifatida qarash ko‘nikmasini shakllantirish lozim (Adler, 1930).

- Maktab va oila hamkorligi platformasini yaratish: Maktab psixologlari ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishi kerak (Turdiyeva, 2023). Maktablarda «Zamonaviy oiladagi fomping va uning oqibatlari», «Kognitiv yuklamaning oldini olish» mavzularida treninglar va ota-onalar klublarini (Parenting Clubs) o‘tkazish muammolarni erta aniqlash va korreksiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Adler, A. (1930).** *Shaxs psixologiyasi*. Berlin.

2. **Abdukaxorovna, GE (2023). Ta'limni rivojlantirishda psixologiyaning roli.** ***Konferensiya, 7*** **(1), 65-68.Davletshin, M. G‘. (2002).** *Yosh davrlari psixologiyasi*. O‘qituvchi.

3. **Davletshin, M. G‘. (2016).** *Ta’lim psixologiyasi*. Fan va texnologiya.

4. **G‘oziyev, E. (2002).** *Umumiy psixologiya*. O‘qituvchi nashriyoti.

5. **Karimova, V. M. (2005).** *Oila psixologiyasi*. Sharq nashriyoti.

6. **Karimova, V. M. (2010).** *Zamonaviy o‘zbek oilasi psixologiyasi*. Toshkent.

7. **Karimova, V. M. (2015).** *Oila psixologiyasi*. Toshkent.

8. **Kwon, M., Lee, J. Y., Won, W. Y., Park, J. W., Min, J. A., Hahn, C., & Gu, X. (2013).** *Development and validation of a smartphone addiction scale (SAS). PLoSONE*,8(2),e56936. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0056936

9. **Laptenok, S. D. (2010).** *Oila sotsiologiyasi*. Moskva.

10. **McDaniel, B. T., & Coyne, S. M. (2016).** *«Technoferference»: Longitudinal associations between parent technology use, parent-child relationships, and child behavior problems. Pediatric Research*, 80(4), 498-504.

11. **Shoumarov, G‘. B. (2008**). *Oila psixologiyasi*. Sharq nashriyoti.

12. **Turdiyeva, N. G‘. (2023)**. *Ota-ona va farzand tarbiyasi o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik ahamiyati. Scientific Platform*, 4(1), 89–95.

13. **Vygotskiy, L. S. (1978)**. *Bola psixologiyasi*. Moskva.

14. **Yurkevich, N. G. (2005).** *Oilaviy munosabatlar psixologiyasi*. Moskva.